

## PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARINING QO‘LLANILISHI

**Kalimbetov Yernazar**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti “Fuqarolik va biznes huquqi” kafedrasida o‘qituvchisi,*

**Akmalov Hamid**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Fuqarolik protsessidan ma’lumki, protsess bosqichlarini amalga oshirish jarayonida sudlar tomonidan protsessual majburlov choralari qo‘llaniladi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning asosiy vazifasi fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda asosiy manbaa sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek fuqarolik kodeksi, fuqarolik protsessual kodeksi va Oliy sud Plenum qarorlarini misol sifatida keltirib o‘tishimiz mumkin. Mazkur vazifalarni amalga oshirilishida fuqarolik protsessual huquqi prinsiplari muhim ahamiyatga ega.*

*Mazkur maqolada normativ-huquqiy hujjatlardan va boshqa adabiyotlardan kelib chiqqan holda protsessual majburlov choralari va ularni qo‘llash asoslari atroflicha yoritilgan. Bunda majburlov choralari qo‘llashda qonunchilikda belgilangan normalar, olimlar va soha mutaxassislarining bu boradagi fikrlari o‘rganilgan. Shuningdek, mavzu yuzasidan mualliflarning ushbu sohaga oid xulosa va takliflari bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Fuqarolik protsessi, protsessual majburlov choralari, mulkiy xarakterdagi majburlov choralari, nomulkiy xarakterdagi majburlov choralari, majburiy keltirish.*

## KIRISH

Qonunchilikdan ma’lumki, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning asosiy vazifasi fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda asosiy manbaa sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek fuqarolik kodeksi, fuqarolik protsessual kodeksi va Oliy sud Plenum qarorlarini misol sifatida keltirib o‘tishimiz mumkin.

Mazkur vazifalarni amalga oshirilishida fuqarolik protsessual huquqi prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq, fuqarolik protsessual huquqidagi umumiy prinsiplarini quyidagicha tasniflash mumkin.

Fuqarolik protsessual huquqining tashkiliy-funksional prinsiplari:

- 1) odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi;
- 2) sudyalarni saylash va tayinlash;
- 3) fuqarolik ishlarining yakka tartibda va hay’at tomonidan ko‘rilishi;
- 4) sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi;
- 5) qonun va sud oldidagi tenglik;
- 6) sud ishlari yuritiladigan til;

7) sudda ish ko'rishning oshkoraligi prinsipi.

Fuqarolik protsessual huquqining funksional prinsiplari esa:

1) ishlarni amaldagi qonun hujjatlari asosida hal qilish;

2) taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi;

3) sudda ishni ko'rishning bevositaligi va og'zakiligi prinsipi.

Ular barcha fuqarolik protsessi institutlarini o'z ichiga olib, qonuniy, asosli hamda adolatli hal qiluv qarori chiqarilishini va ularning ijro etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq, fuqarolik protsessining amaliyotida majburlov choralari yetarlicha va kutilgan samarani bermayabdi deb o'ylaymiz. Shu sababli ushbu mavzu boshqa mavzularga nisbatan biroz dolzarb ahamiyatga ega. Maqolaning asosiy maqsadi ham yuqoridagi masalani ochib berishdan iborat. Bundan tashqari ushbu mavzu yuzasidan boshqa mualliflarning va olimlarning fikrlariga ham to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Aksariyat adabiyotlarda protsessual huquq va majburiyatlarni bajarish atamasi "Protsessual javobgarlik", "Protsessual majburlov choralari" sifatida ko'rinadi [1]. Biroq bu ikki tushuncha bir xil atama bo'lmay, ikkisi ham bir-birini mazmunan to'ldirishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlarda yana boshqa xususiyatlar haqida ham yoziladi. Xususan, rus olimi E.V.Chuklova tomonidan fuqarolik protsessual javobgarlikni mazmun jihatdan ikki turga: pozitiv va negativ turlarga ajratilishi mumkinligi qayd etilgan [2]. Bundan tashqari boshqa olimlar ham mavzu yuzasidan o'z yondashuvlarini bildirib o'tgan. Mazkur maqolaning davomida ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

Protsessual majburlov choralari kiritishdan asosiy maqsad - taraflarning protsessual majburiyatlari bajarilishini ta'minlash, ishni o'z vaqtida sifatli ko'rilishini ta'minlash, majburlov choralari tizimli bo'lishini ta'minlashga qaratilgan [3].

Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini ko'rish jarayonida Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan protsessual intizomga rioya etilishi fuqarolik ishlarini o'z vaqtida va adolatli hal etish imkonini beradi. Shuningdek, taraflar har bir tarafdin protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlaridan adolatli foydalanishga majburdir, bu esa jarayonda ortiqcha vaqt va mablag'larning oldini oladi hamda ish yuritish samaradorligini oshiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, protsessual majburlov choralari tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi sudlar faoliyatida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda barcha protsess ishtirokchilari tegishli protsessual tartib-intizomga rioya qilgan holda fuqarolik ishlarini mazmunan hal qiladi. Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan huquq va majburiyatlar ijrosini ta'minlash chuqur mas'uliyat, oqilona muddat va samaradorlik talab etadi. Mazkur talablar sudya va protsessning boshqa ishtirokchilari uchun majburiy sanaladi [4].

Protsessual majburlov choralari qo'llash faqat sudyaning vakolatiga kiradi. Ushbu holatda qo'shimcha vaqt talab etiladi va arizada aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng umumiy tartibda qayta qo'llanilishi mumkin. Umuman olganda, barcha moddiy va protsessual tartib-taomillarga qat'iy rioya qilingan holda bitta fuqarolik ishni ko'rib chiqish va hal qilish uchun 2-3 oy vaqt ketadi. Biroq sud amaliyotida tomonlarning sudga kelmaganligi sababli fuqarolik ishni ko'rishni keyinga qoldirish holatlari ko'pligi sir emas. Bu ham qo'shimcha vaqtni oladi. Agar sud ikkinchi sud majlisida ishtirok etmagan taraf uchun zarur deb topsa, sud protsessual majburlov choralari qo'llash to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

Yuqoridagi holatlar fuqarolik protsessida protsessual muddatlarning uzoq davom etishiga va manfaatdor tomonlarning huquqlarini ta'minlashning kechikishiga olib keladi. Shu sababdan fuqarolik qonunchiligimizdagi amaldagi protsessual majburlov choralari takomillashtirish, ish yuritish qoidalariga qat'iy rioya etish, sudlovni o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqishni ta'minlash zarur.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 14-bobi "Protsessual majburlov choralari" deb nomlanib, Kodeksning ushbu bobida quyidagi protsessual majburlov choralari belgilangan:

- majburiy keltirish (144-modda);
- ogohlantirish (145-modda);
- sud majlisi zalidan chiqarish (145-modda);
- sud jarimasi (146-modda).

Yuqorida ko'rsatilgan majburlov choralaridan biri bo'lgan majburiy keltirish haqida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Umumiy qoidaga ko'ra majburiy keltirish - shaxs (majburiy keltirilishi shart bo'lgan)ning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganholatlarda qo'llaniladigan majburlov chorasi [5, 132-b.].

Fuqarolik protsessual kodeksining 143-moddasi 1-qismining 1-bandida belgilangan "ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda majburiy keltirish" jumlasini sharxlash, ushbu normada FPKning aynan qaysi moddalari nazarda tutilganligini izohlab berish biroz qiyin kechmoqda nazarimizda. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 19-maydagi "Birinchi instansiya sudi tomonidan fuqarolik protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 14-son qarorining 21-bandida yuqoridagi izohlash qiyin bo'lgan holat shunday ko'rsatiladi:

"FPKning 144-moddasiga muvofiq majburiy keltirish protsessual majburlov chorasi sifatida faqat shaxs sud majlisi vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan, uning sud muhokamasida ishtiroki qonunga ko'ra shart bo'lgan yoki sud tomonidan shart deb topilgan hollarda qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi. Majburiy keltirish haqida ajrim chiqariladi va uning ijrosi ichki ishlar organiga yuklatiladi".

FPKning 144-moddasida majburiy keltirish haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Unga muvofiq, agar, FPKning 313-moddasiga muvofiq sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo'lgan yoki sudga kelishi FPKda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxs sudga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmasa yoxud kelmaganligi sababini ma'lum qilmasa, sud tomonidan unga nisbatan majburiy keltirish haqida ajrim chiqarilishi mumkin. Ushbu ajrimda FPKning 272-moddasida nazarda tutilgan ma'lumotlardan tashqari shaxs majburiy keltirilishi lozim bo'lgan sana, vaqt va joy, shuningdek majburiy keltirish qaysi hududiy ichki ishlar organiga topshirilganligi ko'rsatiladi. Qonunchilikka muvofiq, majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimi ustidan shikoyat berilishi yoki protest keltirilishi uning ijrosini to'xtatmaydi.

Shuningdek, shaxsga nisbatan protsessual majburlov choralari qo'llash, uni fuqarolik protsessual kodeksida yoki sudda belgilangan tegishli majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi [6].

Fuqarolik protsessual kodeksining 14-bobida majburlov choralarining turlari va uni qo'llash asoslari ko'rsatilgan bo'lsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 14-bobida "Odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" masalasi kiritilgan. Mazkur kodeksning 180-moddasida Sudga hurmatsizlik qilish yoritilgan. Unga ko'ra guvoh, jabrlanuvchi, da'vogar, javobgar, ishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning sudga kelishdan qasddan bo'yin tovlashida yoki mazkur shaxslarning va boshqa fuqarolarning raislik qiluvchi farmoyishiga bo'ysunmasligida yoxud sud majlisi paytida tartibni buzishda o'z ifodasini topgan sudga hurmatsizlik BHMning bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Shuningdek, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 181-moddasida mansabdor shaxs tomonidan sud chiqargan xususiy ajrimni (qarorni) ko'rib chiqmaslik yoxud ajrimda (qarorda) ko'rsatilgan qonunni buzish hollarini bartaraf etish choralari ko'rmaslik, xuddi shuningdek xususiy ajrimga (qarorga) o'z vaqtida javob bermaslik BHMning uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi deb belgilab qo'yilgan.

O'z navbatida, mazkur protsessual majburlov choralarining kiritilish zarurati ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual tartibga og'ishmay rioya qilishini ta'minlaydi, sud protsessining o'z vaqtida va sifatli olib borilishiga ko'maklashadi, protsessual muddatni tejaydi va eng muhimi sudda protsessual majburiyat va intizomni mustahkamlaydi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, protsessual majburlov choralari kiritishdan asosiy maqsad - taraflarning protsessual majburiyatlari bajarilishini ta'minlash; ishni o'z vaqtida, sifatli ko'rilishini ta'minlash; majburlov choralarining tizimli bo'lishini ta'minlashga qaratilgan [7].

Mazkur institutning zaruriyati va mohiyati to'g'risida qator ilmiy-nazariy qarashlar, turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, rus olimi E.V.Chuklova protsessual majburlov choralari ikki turga ajratgan:

- 1) mulkiy xarakterdagi majburlov choralari;
- 2) nomulkiy xarakterdagi majburlov choralari [8].

Mulkiy xarakterdagi majburlov chorasiga sud jarimasi, nomulkiy xarakterdagi majburlov choralariga esa Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda majburiy keltirish, ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish kiradi. Biroq protsessual majburlov choralari, xususan, majburiy keltirishni qo'llash doirasida ayrim munozaralar mavjud. Fuqarolik protsessual kodeksining 143-moddasida "ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda majburiy keltirish" tushunchasi kiritilgan, biroq bunda Fuqarolik protsessual kodeksining aynan qaysi moddalari nazarda tutilganligini anglash biroz qiyin nazarimizda. Shu sababdan mazkur holatlarni Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritish lozim deb o'ylayman. Shu o'rinda yana bir masalani alohida ta'kidlab o'tadigan bo'lsak, FPKning 144-moddasiga muvofiq majburiy keltirish voyaga yetmaganlarga, homilador ayollarga, kasalligi, yoshi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra sud majlisiga kela olmaydigan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Sh.Shoraxmedovning ta'kidlashicha, majburlov chorasi sifatida ekspert yoki mutaxassislarga nisbatan sud tomonidan jarima solinishi mumkin, masalan, ekspert sud majlisiga asossiz deb topilgan sabablarga ko'ra hozir bo'lmasa, sud jarima solishga haqli [9, 93-b.].

E.V. Chuklovaning ta'kidlashicha, fuqarolik protsessual javobgarligi ma'no jihatidan ijobiy va salbiy shakllarga bo'linishi mumkin [10, 164-b.].

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini inkor etmagan holda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan protsessual majburlov choralari sud muhokamasida intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi va ayrim hollarda FPKning 14-moddasida nazarda tutilgan subyektlarga nisbatan ham intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Agar itoatsizlik bo'lsa, ular ogohlantiriladi. Agar bu shaxslar raislik qiluvchining buyrug'iga yana bir marta bo'ysunmasalar, shuningdek, ishga zarar yetkazmasdan ularni boshqa shaxs bilan almashtirishning imkoni bo'lmasa, ish sudning ajrimi bilan kechiktirilishi mumkin. Sud bir vaqtning o'zida xususiy ajrim chiqaradi va u yuqori turuvchi prokurorga yoki O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga yuboriladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, amaldagi qonunchiligimizda protsessual majburlov choralari faqat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi bilan tartibga solinadi va yuqoridagi majburlov choralari bilan cheklanadi. Protsessual qonun talablariga rioya etilmagani, majburlov choralarining yaxshi tizimi ishlab chiqilmagani natijasida sud muhokamasi ishtirokchilari sud muhokamasida ishtirok etmaslik, sud jarayonlari cho'zilib ketishi, majburlov choralari samarasiz bo'layotgan holatlar ham uchray turibdi. Xorijiy mamlakatlar (Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Germaniya) fuqarolik protsessual kodekslarida asosan ogohlantirish va sud majlisizalidan chiqarib yuborish choralari qo'llanilmoqda. Masalan, Rossiya Fuqarolik protsessual kodeksida [11] sud majlisida tartibni buzuvchilarga qo'llaniladigan choralar: ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, jarima qo'llash, jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda materiallarni prokurorga yuborish, sudda ommaviy tarzda tartib buzilsa ish ko'rishni keyinga qoldirish [12]. Ukraina Fuqarolik protsessual kodeksida [13] ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, sud tomonidan o'rganish uchun dalillarni vaqtincha olish, guvohni majburiy keltirish; Qozog'iston Fuqarolik protsessual kodeksida [14] sudga hurmatsizlik qilganlik uchun majburlov choralari, sudga keltirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish kabi majburlov choralari belgilangan. Germaniya davlatining majburlov choralari tizimida protsessual majburlov choralari ham samarali tashkil etilgan, xususan, GFR Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq fuqarolik protsessida quyidagi majburlov choralari belgilangan:

1. Xarajatlarni qoplash;
2. Ma'muriy jarima;
3. Majburiy ozodlikdan mahrum qilish;
4. Majburiy ishlab chiqarishga buyurtma berilishi mumkin;
5. Hibsga olish;
6. Sud majlisidan chetlashtirish [15].

Ushbu davlat amaliyotida belgilangan tartibda chaqirilgan sud majlisida ishtirok etuvchi taraflarning guvohlar, ekspertlar va mutaxassislar, ish yuritishda yordam beruvchi uchinchi shaxslar ishtirok etmaganligi natijasida yetkazilgan xarajatlar ushbu shaxslardan undiriladi. Bu esa majburlov choralari samaradorligini ta'minlaydi.

Mavzuni batafsil o'rganib chiqqan holda yakuniy xulosa qiladigan bo'lsak, protsessual majburlov choralari protsessual tartibni mustahkamlaydi, protsessual majburiyatlar bajarilishini ta'minlaydi, ishni o'z vaqtida va puxta ko'rilishini ta'minlaydi, ishda ishtirok

etuvchi shaxslarning kim va qanday protsessual mavqega ega bo'lishidan qat'i nazar, odil sudlovning prinsiplariga to'liq rioya qilishga asos bo'ladi.

## REFERENCES:

1. Kurnikova S.S. Ponyatiye i priznaki grajdansko-pravovoy otvetstvennosti kak meri gosudarstvennogo prinujdeniya// Vestnik Kazanskogo yuridicheskogo instituta MVD Rossii. - 2016. - №4 (26),- S.29-32.; Frolov M.V. O merax protsesualnoy otvetstvennosti kak raznovidnosti protsessualnogo prinujdeniya. // cyberleninka.ru/article/v/o-merah-protsessualnoy-otvetstvennosti-kak-raznovidnosti-protsessualnogo-prinuzhdeniya.
2. Chuklova E.V. O ponyatii, priznakax i merax grajdanskoy protsessualnoy otvetstvennost //Vestnik Samarskoy gumanitarnoy akademii. Seriya "Pravo". - 2008. - №2 (4).
3. Z.Esanova (2018). Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralari: asoslari, tartibi, bu sohadagi yangiliklar. Review of law sciences, (4), 9-15. doi: 10.24412/2181-1148-2018-4-9-15
4. Karimbaevich, K. T. (2021). Concept and characteristics of a corporate contract. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.4 Legal sciences).
5. Z.Esanova. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. "Yuridik adabiyotlar publish", Toshkent, 2022. -328b.
6. M.Sh.Najimov-Issues of Liability for Involving a Minor to Antisocial behavior and Crime in the Criminal Law of Some Foreign Countries. Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 1529 - 1535. Received 16 February 2021; Accepted 08 March 2021
7. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralari. Yuridik fanlar axborotnomasi-Vestnik yuridicheskix nauk-Review of Law Sciences. 4 (2018) 9-15.
8. Rahmonqulov H. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar.-Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2007, -294b.
9. Sh. Sh. Shorahmetov. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Toshkent, "Adolat", 2001. -346b.
10. Ye.V. Chuklova. Grajdanskoye protsessualnoye pravo. Moskva, 2005. - C430.
11. GPK Rossiyskoy Federatsii. Statya 159. Meri, primenyayemiye k narushitelyam poryadka v sudebnom zasedanii.
12. Kommentariy k Grajdanskomu protsessualnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii. - 2ye izd, per i dop. / Pod red M.S.Shakaryan. - M.: Prospekt, 2007. - S.240-242.; Nauchno-prakticheskiy kommentariy K Grajdanskomu protsessualnomu kodeksu Kirgizskoy Respubliki. - Bishkek, 2011. -750 s
13. GPK Ukraini. Glava 9 (Stati 90-94.) Sredstva protsessualnogo prinujdeniya.
14. GPK Kazaxstan Glava 9 (Stati 119-120) Meri otvetstvennosti za proyavleniye neuvajeniya k sudu.
15. Germaniya Federativ Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. URL: <https://taschkent.diplo.de/uz-uz>